

**O'ZBEKISTONDAGI DAVLAT VA XUSUSIY KORXONALARNING KAPITAL  
TUZULMASINI TAKOMILLASHTRISH**

*Madumarov A'zamjon Abdullo o'g'li*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti*

Kapital tuzilmasi korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat va xususiy korxonalarining kapital tuzilmasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda jadal rivojlanib, davlat va xususiy sektorlar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlat va xususiy korxonalarining kapital tuzilmasini takomillashtirish muhim iqtisodiy masalalardan biriga aylandi. Korxonalar uchun samarali kapital tuzilmasini shakllantirish raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Davlat korxonalari ko'pincha davlat byudjetidan moliyalashtirilsada, ular ham qarz kapitalini jalb qilish va ichki moliyaviy resurslarni boshqarish orqali kapital tuzilmasini takomillashtirishga ehtiyoj sezadilar. Bunda davlat ulushi va qarz majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash strategik ahamiyatga ega.

Kapital tuzilmasi korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish tizimini anglatadi. Uning tarkibi asosiy va aylanma mablag'lardan iborat bo'lib, o'z navbatida, ularga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

- Moliyaviy manbalar turlari;
- Moliyalashtirish manbalarining narxi;
- Korxonalar faoliyatining xatar darajasi;
- Soliq siyosati va davlat tartibga solish choralari;
- Bozor sharoitlari va raqobat muhiti.

O'zbekistonda davlat va xususiy korxonalar moliyaviy boshqaruvda turli yondashuvlarni qo'llaydi. Davlat korxonalari ko'proq byudjet mablag'lariga tayanadi, xususiy korxonalar esa aksiyadorlik kapitali va kredit mablag'larini keng qo'llaydi. Kapital tuzilmasini shakllantirishda quyidagi holatlar muhim:


- Davlat korxonalarining investitsion loyihalar uchun mablag'larni jalb qilish strategiyasi;
- Xususiy korxonalarining moliyaviy xavflarni boshqarish usullari;
- Innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritish imkoniyatlari.

So'nggi yillarda O'zbekistonda korxonalarining kapital tuzilmasini takomillashtirish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

Misol tariqasida 2023-yilda mamlakatda jami investitsiyalar hajmi 15% ga oshdi va 14 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Xususiy sektorda investitsiyalarning ulushi 65% ga yetdi, bu esa xususiy kapitalning faol o'sishini ko'rsatadi. Davlat korxonalari soni 2020-yildan beri 20% ga qisqartirilib, ularning samaradorligi oshirildi. Toshkent Fond Birjasida savdolar hajmi yiliga 25% ga o'sib, 2023-yilda 500 million AQSh dollaridan oshdi.

Mamlakatimizda xususiy korxonalarining soni kundan kunga ortib bormoqda. 2024-yilning 1-fevral holatiga ko'ra, O'zbekistondagi jami xususiy korxonalar soni 63465 tani tashkil etgan. Xususiy korxonalarining 27944 tasi savdo sohasida, 9750 ta sanoat, 5 192 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha

xizmatlar hamda 4 161 tasi qurilish sohasida faoliyat yuritmoqda. Mamlakat bo'yicha eng ko'p xususiy korxonalar Toshkent shahrida qayd etilgan — 8 094 ta. Shu bilan birga, Farg'ona (7 848 ta) hamda Qashqadaryo (7 608 ta) viloyatlaridagi xususiy korxonalar soni boshqa hududlardagiga qaraganda sezilarli ko'paygan.




**1-rasm. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar**

O'zbekistondagi korxonalar uchun quyidagi strategiyalar samarali bo'lishi mumkin:

- Kapital bozorlarini rivojlantirish;
- Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish;
- Korxonalar uchun kredit olish shartlarini yengillashtirish;
- Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;
- Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish;
- Kredit reyting tizimini rivojlantirish.


O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda xususiy sektorning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Xususiy korxonalar mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, yangi ish o'rinlari yaratish va milliy daromadni oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Kapital tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:




**2-rasm. Kapital tuzilmasining tarkibiga kiruvchi asosiy elementlar**

O'z mablag'lari (aksiyadorlik kapitali) kompaniyaning egalari yoki aksiyadorlari tomonidan taqdim etilgan moliyaviy resurslarni anglatadi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:



**3-rasm. O'z mablag'lari (aksiyadorlik kapitali) tarkibiga kiruvchi elementlar**

Jalb qilingan mablag'lar (qarz kapitali) kompaniya tomonidan tashqi manbalardan qarz olish yo'li bilan olingan mablag'larni o'z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi:



**4-rasm. Jalb qilingan mablag'lar tarkibiga kiruvchi elementlar**

O'zbekistonda davlat va xususiy korxonalarining kapital tuzilmasini takomillashtirish orqali korxonaning qiymatini maksimal darajada oshirish va moliyaviy xavflarni minimal darajada ushlab turishdan iborat. Buning uchun korxonalar qarz va o'z mablag'lari o'rtasida optimal nisbatni ta'minlaydi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda kapital jalb qilish masalalari muhim ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda jalb qilingan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini qayd etish joiz. Mamlakatimizda davlat ishtirokidagi korxonalarda kapital jalb qilish amaliyoti aksiyalar va obligatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi davlat va xususiy korxonalarining kapital tuzilmasini takomillashtirish bugungi kunda muhim iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi, chunki kapital tuzilmasi samaradorligini ta'minlash korxonalarini moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va uzoq muddatli o'sishga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Davlat korxonalari asosan qarz mablag'lariga suyangan holda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, xususiy sektor ko'proq ichki kapital va investorlar sarmoyasiga tayanmoqda, biroq har ikki sektorda ham kapital tuzilmasini optimallashtirish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, kapital tuzilmasini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi: davlat korxonalari uchun moliyaviy boshqaruvni modernizatsiya qilish, tashqi qarzlarni samarali boshqarish va davlat subsidiyalaridan bosqichma-bosqich voz kechish orqali mustaqil moliyaviy barqarorlikni oshirish zarur bo'lsa, xususiy korxonalar uchun moliyaviy bozor imkoniyatlarini kengaytirish, aksiyalar chiqarish va xalqaro investorlarni jalb qilish orqali kapitalning manbalarini diversifikatsiyalash lozim. Shuningdek, kapital bozorini rivojlantirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish va korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish umumiy chora-tadbirlar sifatida dolzarbdir. Shu jihatdan, kapital tuzilmasini takomillashtirish O'zbekistondagi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka asos bo'ladi, bunda davlat va

xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Viet Anh Dang, Ahmet Karpuz, Abdul Mohamed. Venture Kapital Directors and Corporate Debt Structure: An Empirical Analysis of Newly Listed Companies. // Journal of 241 134 576 85 Davlat Xo'jalik boshqaruv organlari Boshqa aksiyadorlar Joylashtirish jarayonidagi aksiyalar Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 6, December 2023. ISSN: 2181-1016 Banking & Finance, Available online 24 October 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378426623002224>
2. Meiying Liu, Xuxia Niu. The impact of kapital market opening on earnings management: Empirical evidence based on "Land-Port Connection". // Finance Research Letters, Volume 55, Part A, July 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612323002362>
3. Manel Kammoun, Gabriel J. Power, Djerry C. Tandja M. Kapital market reactions to project finance loans. // Finance Research Letters, Volume 45, March 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612321001963>
4. Zichen Wang, Chang Zhang. Do shareholder litigations have spillover effects on peer companies from the perspective of financing constraints? // Finance Research Letters, Volume 58, Part B, December 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612323007730>
5. Жўрабекович Қ. Ж. и др. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 1 (137). – С. 53-61.
6. Elmirzayev S., Omonov S. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari //Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali. – 2020. – T. 2.